

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## O'ZBEKISTONNING ARAB DAVLATLARI BILAN MADANIY ALOQALARNING DINIY-MA'RIFIY XUSUSIYATLARI

Davlatov Javlon Nurmuhammad o'g'li

Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi  
ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o'qitish metodikasi o'qituvchisi

### Annotatsiya

Milliy mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston jahon ham jamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi, yangi jamiyat qurish uchun tub o'zgarish va isloxotlar amalga oshirila boshlandi. O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davr ichida milliy davlatchilikni barpo qilish, bozor iqtisodiga o'tish, xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida ulkan ishlar amalga oshirildi.

**Kalit so'zlar.** Dunyoviy davlat, "Ma'rifatnoma", din, katta og'a

Agar biz bosib o'tilgan istiqloq yo'limizga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, ozodlikning ilk onlaridan boshlaboq dinga munosabat, davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarni to'g'ri yo'lga qo'yishga alohida etibor qaratildi. Konstitutsiyaga ko'ra O'zbekiston dunyoviy davlat. Mamlakatimizda din davlatdan ajratilgan. Ammo respublikamiz raxbariyati bu masalaga oqilona yondashib, din davlatdan ajratilgan bo'lsada, jamiyatdan ajralmagani, xususan, O'zbekiston singari qadimiy va barqaror diniy an'analarga ega mamlakatda bu borada g'oyat nazokat va extiyotkorlik bilan ish yuritish lozimligini o'z vaqtida anglab yetdi

Shuning uchun xam bugun ko'p millatli mamlakatimizda xech qaysi din vakillarining diniy nafsoniyatlarini kamsitmagan holda ayni baqtda diniy hissiyotlarni avj xam oldirmasdan, og'ir-vazmin, uzoqni ko'zlagan holda siyosat amalga oshirilmoqda.

Bu siyosat mohiyati ilk bor Birinchi prezidentimizning "Din odamzodni hech qachon yomon yo'lga boshlamaydi. Bu dunyoning o'tkinchi ekanini takidlab, odam bolasini xushyor bo'lishiga, yaxshi iz qoldirishga undab o'tadi."<sup>1</sup>

Biz dinga bundan keyin ham barcha shart-sharoitlarni yaratib beramiz, diniy rasm rusmlarga, bayramlarga, diniy tarbiya va ta'limga doimo jiddiy e'tibor beriladi. Ayni damda din peshvolariga, o'zimizga o'xshagan musulmon birodarlarimizga bir

<sup>1</sup> Жураев Н., Файзуллаев Т. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. – Т.: Шарк, 2000. – Б. 406.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

narsani takror va takror uqtirmoqchimiz : din o'z yo'li bilan, davlat o'z yo'li bilan. Diniy partiyalar tuzib hokimiyat talashib yurishlar xudoga yoqmaydi. Islom dinida odamlarni kamtarlikka, kamsuqumlikka undaydi. Musulmon farzandi kechirimli bo'ladi. Musulmon farzandi birovni kofir, birovni hudojo'y deb toifalarga ajratmaydi. Shunday ekan, bir-birimizni bexuda ayblab, men, musulmon, sen kofirsan deb talashib yurishlar bizga to'g'ri kelmaydi.”.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov siyosiy vaziyat nihoyat qaltis va nozik bir paytda mamlakat aholisi uchun unitilmas xujjatga imzo chekdi. Bu Farmon yurtdoshlarimiz ruhiyatida ulkan ijobiy o'zgarish yasadi. Bu Farmon mazlum xalqning ko'ksiga hademay shamol tegajagidan bir nishona bo'ldi.

“Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga xaj qilishi to'grisida”:

1. O'rta osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasining O'rta Osiyo regionida istiqomat qiluvchi 500 kishidan iborat bir gurux musulmonlarni 1990-yilning 19-iyunidan boshlab 10-iyuligacha xaj qiluvchilar sifatida Saudiya Arabistoniga yuborish to'g'risidagi iltimosiga rozilik berilsin.

2. O'zbekiston Grajdan aviatsiyasi boshqarmasi xaj qiluvchilarni kelishilgan marshrut bo'yicha Jidda shahriga (Saudiya Arabistoniga) olib borib qo'yish va olib kelishni tashkil etsin Ana shu maqsadlar uchun Il-86 va Il-62 samolyotlari ajratilib, ularni doimiy istiqomat joylariga yetkazib qoi'yishni xam ta'minlansin.

2. O'zbekiston SSR Ichki ishlar ministirligi ruxsatnomalar va qayd etish bo'limi, O'zbekiston Tashqi ishlar ministirligi O'zbekiston Respublikasi bojxonasi SSSR Ministirlar Soveti huzuridagi O'zbekiston SSR bo'yicha diniy ishlar kengashi bilan birgalikda tegishli yo'l xujjatlarining jadal ras-miylashtirilishini ta'minlasinlar.

3. O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash ministirligi xaj qiluvchilarga zarur dori-darmonlar ajratib, xaj joylarida bo'lish davrida ularga malakali tibbiy xizmat ko'rsatilishini ta'minlasin.

4. O'zbekiston SSR Savdo ministirligi O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi bilan birgalikda yodgorlik buyumlari, esdalik sovg'alari harid etishda haj qiluvchularga ko'maklashsin.

5. Toshkent shahar ijroiya komiteti musulmonlar diniy boshqarmasining talabnomasiga ko'ra haj qiluvchilar jo'nab ketishi oldidan va Saudiya Arabistonidan qaytganidan keyin ularning Toshkent shahridagi mehmonxonalarda joylashtirilishini ta'minlansin.

1989-1991-yillardagi ijtimoiy-siyosiy muhit nuqtai nazaridan qaraganda, respublikamiz raxbarining bunday xatti-harakatlari Markazdagi “kata



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

og'alarimiz"ga aslo ma'qul tushmas edi. Shuning uchun ular Tojikiston, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston va boshqa bir qator ittifoqdosh respublikalarda turli yillar bilan uyushtirilgan qonli fojealarning O'zbekistonda ham tashkil etish uchun makkorona va qabix rejalar tuzdilar, bor imkoniyatlari bilan bu manfur niyatlarni amalga oshirishga urindilar. Buning uchun ular o'zlari vujudga keltirgan og'ir ijtimoiy vaziyatdan, milliy his-tuyg'ulardan, o'z oramizdan chiqqan ayrim munofiq kimsalardan foydalanmoqchi bo'ldilar.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov va uning boshchiligidagi hukumat ana shunday murakkab va og'ir sharoitda o'z xalqining dardiga quloq solish, uning muammolarini zudlik bilan hal qilish orqaligina mamlakatni tanglik va bo'xronidan olib chiqish mumkinligini anglab yetdi va bu mushkul vazifani ado etishga qat'iyat va shijoat bilan kirishdi.

Mamlakatda Islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma'naviy va madaniy qadryat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish choralari ko'rildi

Musulmon hayotidagi qutlug' sanalar – Qurbon va Ramazon hayitlari kunlaeini bundan buyon doimiy sur'atda bayram qilish va ularni dam olish kunlari deb e'lon qilinishi ham aynan xalqimiz ko'nglidagi ish bo'ldi.

1992-yil 27-martda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "Ro'za hayitini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risida" Farmoni e'lon qilindi. Unga ko'ra Mustaqil O'zbekiston Respublikasi musulmonlarining istak va hohishlarini inobatga olib hamda fuqarolar o'rtasida mehr – oqibatni barqarorlashtirish maqsadida diniy bayram – Ro'za hayitining birinchi kuni dam olish kuni deb e'lon qilindi<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 19-maydagi qarori bilan Toshkent shahrida islom ta'limoti va falsafasini, o'zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur o'rganish maqsadida Xalqaro Islom tadqiqot markazi tashkil etildi. Mazkur markazning asosiy vazifasi diyorimiz musulmonlariga milliy qadryatlarimizni va haqiqiy islom ta'limotini yetkazish, mavjud islomiy osori-atiqalar tarixini o'rganish, nodir qo'lyozma asarlarni tadqiq etish, ular bilan keng jamoatchilikni tanishtirish, darslik va qo'llanmalar, lug'atlar tayyolash va nashr qilishdan iboratdir. Mamlakat televideniyasi orqali berilayotgan "Ma'rifatnoma" ko'rsatuvi xalqning ma'naviyatini yuksaltirishda, diniy ma'rifatini o'stirishda kata ahamiyat kasb etib bormoqda. O'zbekiston musulmonlari erkinlik va imkoniyatlarga

<sup>2</sup> Жураев Н., Файзуллаев Т. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. – Т.: Шарк, 2000. – Б. 409.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

ega bo'lmoqdalar. Ular bevosita hukumat yordamida har yili muqaddas Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatiga erishdilar. Hozirgacha 17 mingdan ziyod hamyurtlarimiz ana shu muqaddas qadamjolarni tavof qilib qaytish sharafiga noil bo'ldilar. Birgina 1996-yilning o'zida 3 ming 700 ga yaqin musulmonlar Makkai munavvara va Madinai mukarramaga safar qildilar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboyev A. Hamkorlikning yangi bosqichi // Xalq so'zi, 2006, 21 mart.
2. Boboyev A. O'zbekiston-Misr. Hamkorliknig yangi ufqlari // Xalq so'zi. 2007-yil 20-aprel.
3. Jonuzoqov A. O'zbekiston tashabbusi - tinchlik // O'zbekiston ovozi, 2001, 27-dekabr'.
4. O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2008-yil, oktyabr.

